



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 14-sentabr, payshanba,

109 (23.830)-son

**KUN  
HIKMATI**  
Asabni  
jilovlay bilish  
eng go'zal  
fazilat

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI “O'ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI 2023-YILDA SIFATLI VA O'Z VAQTIDA AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr-dagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sor farmoniga muvofiq shuningdek, “O'zbekiston – 2030” strategiyasining “Insonga e'tibor va sifatlari ta'lil yili”da sifatlari va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida:

1. “O'zbekiston – 2030” strategiyasida quyidagi ustuvor yo'naliishlar belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

har bir insonga o'z salohiyatini ro'yoga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farvonligini ta'minlash;

suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

“xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

2. “O'zbekiston – 2030” strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yoga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'naliishi doirasida:

a) 2024-yil 1-yanvardan boshlab: davlat maktabgacha ta'lil tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqslil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to'ytirilgan non mahsulotlari berilishi yo'liga qo'yilsin;

Xorazm viloyatining Qo'shko'pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lil planshetlari bilan ta'minlansin, kelgusida mazkur tajriba respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etilsin;

banklarning nodavlat umumiy o'rta ta'lil tashkilotlari faoliyatini yo'iga qo'yish uchun milliy valyutada ajratiladigan, qiyamti 20 milliard so'ngacha bo'lgan kreditlar bo'yicha, foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, lekin uning 1,5 baravaridan ko'p bo'Imagan qismini qoplash uchun Davlat budgeti hisobidan kompensatsiya taqdim etish amaliyoti yo'iga qo'yilsin;

b) 2023/2024-o'quv yilidan boshlab: umumiy o'rta ta'lil muassalarining kasb-hunar egasi bo'lish istagidagi 10-sinf o'quvchilar uchun tegishli hududlarda talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'rgatish kurslari joriy etilsin.

Bunda, dastlabki bosqichda ushu turrib zarur kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasiga ega bo'lgan hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan belgilangan umumiy o'rta ta'lilmuassasalarida joriy etilsin;

v) 2023/2024-o'quv yilidan boshlab: Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar umumiy o'rta ta'lilmuassasalarini uchun “tayanch maktab” etib belgilansin.

Bunda, umumiy o'rta ta'lilmuassasalarini o'qituvchilarini “tayanch maktablar” tomonidan yangi ta'lim dasturlari, dars o'tishning ilg'or metodikalarini va o'quvchi bilimini baholashning zamonaviy usullari ga o'rgatiladi.

3. Belgilansinki, 2024-yil 1-yanvardan boshlab: onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalar uchun Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi hamda Bolalar milliy tibbiyot markazida gemotoperik suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiyasi amaliyoti joriy etiladi;

virusli gepatitning “S” turi bilan kasallangan bemorlarni hamda gemotopoetik suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiyasi muolajasiga muhtoj onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni to'liq Davlat budjeti mablag'lari hisobidan davolash yo'iga qo'yiladi.

4. Shunday tartib o'rnatisinki, unga muvofiq:

a) 2023-yil 1-oktabrdan boshlab og'ir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo'lgan har bir oila bo'yicha alohida “ijtimoiy xizmat ishi”ni yuritish tartibi amaliyotga joriy etiladi. Bunda, ushu ojalalar sharoitni yaxshilash, ularga davolash, doris vositalar bilan ta'minlash, farzandlarini maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlariga joylashtirish, moddiy yordam berish kabi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish nazarda tutildi;

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab: Toshkent shahrining tibbiyot muassasalarida davlat tomonidan kaflatlangan bepul tibbiy xizmatlar hajmi va dori vositalari ro'yxatini amaliyotga kiritishni nazarda tutuvchi davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

(Davomi 2-sahifada) >>



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz

Mahalla va qishloqlarimizni obod va farovon maskanga aylantirishda “Tashabbusli budget”ning roli oshmoqda. Mazkur platforma tufayli aholining ishtiroyi bilan muammolarga yechim topilyapti.

Ayni paytda davom etayotgan “Tashabbusli budget” jarayonining ikkinchi mavsumi uchun “Fuqarolar tashabbus” jamg'armasiga 134,4 milliard so'm ajratilgan. Buning 103,7 milliard so'mi davlat, 30,7 milliard so'mi mahalliy budjet mablag'laridan shakllantirildi.

- Joriy yilning 17-iyulidan boshlab 7-augustgacha viloyat bo'yicha tashabbuskorlar tomonidan 3200 ta taklif kelib tushdi, - deydi viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bosh mutaxassis Shahzod Tursuntshev. - Takliflar 20 kun mobaynida nizom talablariga asosan saralab olindi. Undan so'ng ischhi komissiya tomonidan 3200 ta taklifdan 2558 tasi ovoz berish jarayoniga o'tkazildi. Ularning 1088 tasi ichki yo'llarni ta'mirlash, 441 tasi maktab, 126 tasi maktabgacha ta'lim, 98 tasi sog'liqui saqlash, 245 tasi ko'cha chiroqlari va elektr ta'minoti hamda 560 tasi boshqa yo'nalishlarga to'g'ri keladi.

Jomboy tumanida fuqarolar tomonidan 120 ta taklif berilgan bo'lib, uning 88 tasi tasdiqlanib, ovoz berish jarayoniga qo'yildi. 25 ta umumta'lim maktabi, 5 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 4 ta sog'liqui saqlash muassasalarini ta'mirlash, 2 ta ichimlik suvi tarmoqlari, 10 ta ko'cha chiroqlari va transformatorlar o'rnatish kabi muammolarni hal qilish uchun 5,5 milliard so'm mablag' so'ralmoqda.

## Tashabbusli budget

ko'p yillik muammolarga yechim bo'lyapti



**OpenBudget**  
O'zbekiston Respublikasi  
“Ochiq Budget” Portali

gi 117-tonli qaroriga asosan, fuqarolar tomonidan 2000 dan ortiq ovoz berilgan takliflarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha ravishda 135 ta taklif g'olib deb topilib, ular uchun 137,7 milliard so'm mablag' ajratilgandi.

Nurobod tumanidagi Tim qishlog'i aholisi ham o'z muammolarini hal qilish maqsadida “Tashabbusli budget”da ishtiroy etib, viloyatda eng ko'p - 15115 ta ovoz yig'ib, g'olib bo'lgach, 3,5 kilometr yo'l asfalt qilindi. Shuningdek, Arabota va Bunyodkor mahallalari o'tasida 4 kilometr yo'l ham 1 milliard 150 million so'm sarlanib, to'liq asfalt qilindi.

Birinchi mavsumda g'olib bo'lgan loyihalarning qariyb 40 foizi to'liq bajarib bo'lindi. Ikkinchi mavsumda saralab olinigan takliflar uchun ovoz berish jarayoni shu yil 17-sentabrgacha davom etadi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

Prezidentimizning 2023-yil 10-aprelda-

## NARPAY VA KATTAQO'RG'ON TUMANLARIGA HOKIMLAR TAYINLANDI



12-sentabr kuni xalq deputatlari Narpay va Kattaqo'rg'on tumanlari Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalari o'tkazildi.

Ikkala sessiyada ham tashkiliy masala ko'rildi.

**Sherzod Rahmonov** Narpay tumani hokimi vazifasiga, **Jamshid Nasriddinov** esa Kattaqo'rg'on tumani hokimi vazifasiga tasdiqlandi.

Tayinlovga qadar ikkala tuman rahbari ham hokim vazifasini bajaruvchi sifatida ishlab kelayotgan edi.

Sessiyalar ishida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtiroy etib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishda hokimlar va faollar oldida turgan vazifalarga e'tibor qaratdi.



## O'zbekistonda bioiqtisodiyot sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlangapti

**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida O'zbekistonda bioiqtisodiyotni rivojlantirish borasida xalqaro o'quv seminari bo'lib o'tdi.**

Tadbirda Latviya, Litva, Finlandiya davlatlaridan, shuningdek, bioiqtisodiyot sohasidagi o'zbekistonlik olimlar, ekspertlar qatnashdi. Unda mamlakatimizda bioiqtisodiyoti rivojlantirish imkoniyatlari, uning mohiyati, o'rni, tarmoq yondashuvidan farqlari, yagona bioiqtisodiy ekotizimda

turli subyektlarning vazifalari va afzalliklari haqidagi so'z yurildi.

Loyha doirasida 3 yildan beri o'zbekistonlik olimlar bilan hamkorlikda ishlaysapmiz, - deydi xalqaro loyha koordinatori, Latviya hayot fanlari va texnologiyalar universiteti olimesi Irina Kulitane. - O'zbekistonning to'rtta oliy ta'lim muassasasi bilan kelishuvga erishganim. Bugun ushu oliy ta'lim muassasalarida loyha doirasida bioiqtisodiyot yo'nalishida 23 nafr magistr ta'lim olyapti. Kelgusi yilda ular O'zbekistonda bioiqtisodiyot sohasi bo'yicha birin-

chi qaldirg'ochlar sifatida o'qishni bitiradi. Loyha doirasida kelishuvga erishilgan institutlarda bioiqtisodiyot yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash davom etishi va rivojlanishi kerak. Shu maqsadda Samarcand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bioiqtisodiyot markazi tashkil etildi. Biz o'zbekistonlik oliy ta'lim muassasalarini o'qituvchilarini ham bioiqtisodiyot bo'yicha ta'lim berishga tayyorlashimiz kerak. Ular seminarlarda qatnashib, yevropalik olimlar bilan tajriba almashyapti. Bizning universitetimizda bioiqtisodiyot sohasida ulukzil miy ishlar, tajribalar olib boriladi. Latviya qishloq xo'jaligi vazirligi buyurtmasi asosida istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi va hayotga tattbiq etiladi. O'zbekistonda ham yaqin kelajakda bioiqtisodiyot sohasi bo'yicha istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi.

O'zbekiston tarmoq iqtisodiyotidan bioiqtisodiyotga samarali o'tishni amalga oshirish uchun ulkan ulkan salohiyatga ega. Ammu bu maqsadlarga erishish uchun mamlakatda bioiqtisodiy yondashuvlarni sanoat amaliyotiga joriy etadigan yuqori malakali mutaxassislariga muhtoj.

Seminar Latviya Hayot fanlari va texnologiyalar universiteti rahbarligida Yevropa Ittifoqining “ERASMUS+” dasturi tomonidan moliyalashtiriladigan “BioEsUz” konsorsiumi tomonidan tashkil etildi. Unda yevropalik olimlar o'z bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

**Kurshida ERNAZAROVA.**

Bugun Toshkentdagagi Milliy matbuot markazida “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarining 110 va 105 yilligi munosabati bilan ma'rifiy tadbirlar, tahririyat tomonidan chop etilgan kitoblar taqdimoti hamda shaxmat musobaqasi o'tkaziladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

# "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASINI 2023-YILDA SIFATLI VA O'Z VAQTIDA AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

nogironligi bo'lgan shaxslarni **protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya** hamda dori **vostitalari bilan ta'minlash** ishlari "vaucher" tizimi asosida bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Bunda, nogironligi bo'lgan shaxslarga **tovar va xizmatlarni o'zlarini tanlagan yetkazib beruvchidan xarid qilish imkoniyati** yaratiladi va ularning xarajatlari **Davlat budjeti mablag'i**lari hisobidan qoplab beriladi.

5. Xotin-qizlarning ijtimoiy faoliigini oshirish, ularga o'salohiyatini to'laqoni ro'yogba chiqarishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida **2024-yil 1-yanvardan boshlab** og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni **qayta kasbga tayyorlash** xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etilsin.

6. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining har bir insonga o'salohiyatini ro'yogba chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'naliishi bo'yicha:

**2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirler rejasiga** 1-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar** 1a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati** 1b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, ning barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'naliishi doirasida:

a) **2023-yil 1-oktobrдан boshlab** tadbirlik subyektlariga miqdori **10 million so'mdan** yuqori bo'lgan soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun, agar tadbirkorlik subyekti huquqbuzarlikni inkor etsa, **moliyaviy sanksiyalarni faqatgina sud tartsiba** qo'llash amaliyoti yo'iga qo'yilsin;

b) **2024-yil 1-yanvardan boshlab:**

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga hosilni sug'urtalashda **sug'urta mukofotining 50 foizi miqdorida subsidiya berish** tartibi joriy etilsin;

"**Izlanish va rivojlanish**" (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab **3 yil muddatga** mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha hisoblangan summa miqdorining **1 foizini to'lash**, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi ni **1 foiz** miqdorida hisoblash tartibi joriy etilsin;

davlat ulushi **50 foizdan** yuqori bo'lgan tashkilotlar tomonidan har yili amalga oshirilagan investitsiya loyihalari qiyamatining kamida **5 foizini obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtirish** tartibi joriy etilsin.

8. **2024-yil 1-yanvardan boshlab** jismoniy va yuridik shaxslarga qo'shilgan qiymat solig'i ni **to'liq qaytarib berish tizimi** quydagilar hisobidan keng tarzida:

**Xorijiy turistlarga – O'zbekiston xalqaro aeroportlarida** O'zbekiston hududida sotib olingan va "Tax free" tizimi bo'yicha rasmiylashtirilgan mahsulot uchun;

**tur-operatorlarga** – xorijiy kontragentlar bilan shartnomalar doirasida ko'rsatilgan eksport xizmatlari uchun.

9. Iqtisodiyot va moliya vazirligining **quydagilarni nazarda tutuvchi takliflari** ma'qullansin:

**O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish** va uning asosiy vazifalari sifatida energetika, kommunal xo'jalik, transport, ekologiya, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ustuvor sohalarda dav-

lat-xususiy sheriklik loyihalari hujjatlarini **sifatli ishlab chiqishini** belgilash;

davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan kelib chiquvchi davlatning to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlarini **monitoring qilish, boshqarish va tartibga solish tizimini** amaliyotga tabbiq etish;

Davlat budjeti loyihasini shakllantirish va ijroisi bo'yicha hisobotlarda **budget xarakatlarining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatib borish** (markirovkalash) mexanizmlarini joriy etish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (J.Qo'chqorov):

a) **ikki hafta** muddatda:

xalqaro moliya institutlarini **jalb qilgan holida O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini faoliyatini samarali tashkil etish** bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan **davlatning majburiyatlarini boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini belgilovchi** Hukumat qarori loyihasi;

b) **2024-yil 1-yanvarga qadar** Davlat budjeti xarakatlarining barqaror rivojlanish **milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatib borish** (markirovkalash) mexanizmlarini joriy etish bo'yicha Hukumat qarori loyihasi kiritilishini ta'minlasin.

10. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'naliishi bo'yicha:

**2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirler rejasiga** 2-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar** 2a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati** 2b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining suv resurslarini **tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish** yo'naliishi doirasida:

a) **2023-yil 1-noyabrdan boshlab:** ijobji ekologik ekspertiza xulosasini olmagan obyektlarga nisbatan **moliyalashtirish, kreditlash va boshqa moliya operatsiyalarini to'xtatish** turish mexanizmi joriy etilsin;

ekologik huquqbuzarlik sodir etganlarga nisbatan zararni qoplash bilan bir qatorda, zarar yetkazilan **tabiat obyektni tiklash** va uning **muayyan muddat davomida muhofaza qilinishini ta'minlash majburiyati** yuklansin;

b) **suv resurslarini muhofaza qilish** va ulardan oqilona foydalish maqsadida **2024-yil 1-yanvardan boshlab:**

respublikaning uzoq muddatli **suv balansi programmasi** yuritish, shu jumladan, uni har yili yangilash va suv resurslarini **tejash dasturlarini qabul qilish** amaliyoti yo'iga qo'yilsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining, keyinchalik esa, **bosqichma-bosqich respublikaning barcha hududlarining qishloq xo'jaligi** mahsulotlari yetishtiruvchilari **sunvi tejaydigan texnologiyalarni** joriy qilish uchun kreditlar **10 foiz** stavkada (foiz stavkalarini subsidiyalash hisobiga) ajratilishi ta'minlansin;

v) **atmosferaga zararli** tashlanmalar hajmini kamaytirish maqsadida xalqaro "karbon market" tizimi doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar tomonidan barpo etiladigan **yashil maydonlarni tashkil qilish** xarajatlarini qis-

**man jalb qilinan** grant mablag'i hisobidan kompensatsiya **qilish** amaliyoti yo'iga **qo'yilsin**.

Bunda, barpo etilgan **yashil maydonlar** (yay-lovlarni ozuqabop ekinlar bilan, qishloq xo'jaligi yerlarini daraxtlar bilan qoplash) bo'yicha kompensatsiyalar **issiqxonqa gazlarini zararsizlantirish darajasiga mutanosib** ravishda ajratiladi.

12. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining suv resurslarini **tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish** yo'naliishi bo'yicha:

**2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirler rejasiga** 3-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar** 3a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati** 3b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'naliishi doirasida:

a) davlat xizmatlarini **ko'rsatishda aholiga yana-da quayliyliklar yaratish va ortiqcha sansorliklariga barham berish** maqsadida:

2024-yil 1-yanvardan boshlab aholiga **yo'l harakati xavfsizligi sohasida davlat xizmatlarini** ko'rsatishda, shu jumladan, avtomototransport vositalarini **davlat ro'yatidan o'tkazishda** avtomototransport vositasining oldi-sotdi sharhnomalari va **boshqa notarial tasdiqlangan bitimlarni** "Notarius" avtomatlashirilgan axborot tizimidan olish amaliyoti yo'iga qo'yilsin va ariza beruvchilar dan **mazkur hujjatlarni talab qilish taqilansin**;

2024-yil 1-martdan boshlab notarial idoraga kelmasdan, shu jumladan, **chet eldan turib mol-mulkdan foydalishan** bilan bog'liq bitimlarni (mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazishdan tashqari) elektron raqamli imzodan **foydalani**, video-konferensaloqa orqali rasmiylashtirish tartibi yo'iga qo'yilsin;

b) **2024-yil 1-yanvardan boshlab** bosqichma-bosqich barcha shahar va tumanlarda "**Mahalla budjeti**" tizimi joriy etilsin.

Bunda, tuman va shahar budgetlariga tushadi-gan soliq tushumlarining bir qismi mahallalarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish jamg'armalariga yo'naltirilishi belgilansin;

v) **tashhabusli budget amaliyotini** va mahallalarining **moliyaviy mustaqilligini yanada kengaytirish** maqsadida **2024-yilda jamaatchilik** fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan **10 trillion so'm**, shundan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari uchun kamida **4 trillion so'm** yo'naltirilsin;

g) **2024-yil yakuniga qadar** qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlari sanksiya berish masalasini alohida sudyalar – **tergov sudyalari** tomonidan ko'rib chiqish tartibi joriy etilsin;

d) tadbirkorlik sohasida javobgarlikni yana-da liberallashtirish maqsadida **2024-yil 1-yanvardan boshlab**:

birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsni, agar u **sud maslahatxonaga kirguning qadar** soliqlar va yig'imalar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida **dravlatga yetkazilgan zararning o'rni** to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilish; tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'zg'atilgan har bir jinoyat ishi bo'yicha tergov hamda sud jarayonida tegishli mansabdor shaxs **jinoyat ishi materiallarini ish yurutuviga qabul qilgan vaqtidan boshlab** tadbir-

korni himoya qilishga Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, shuningdek, tadbirkorlik subyekti a'zo hisoblangan boshqa tashkilotni **jamoat himoyachisi sifatida jalb etishi** (xabar qilish) tartibi joriy etilsin;

e) **2024-yil 1-yanvardan boshlab** aholi punktlarida barcha yangi qurilayotgan ikki va undan ortiq polosalar avtomobil yo'llarida piyodalar o'tish yo'laklarini svetoforlar bilan to'liq jihozlash majburiyeti etib belgilansin.

14. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'naliishi bo'yicha:

**2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirler rejasiga** 4-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar** 4a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati** 4b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

15. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatini izchil davom ettirish yo'naliishi doirasida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Tashqi ishlar vazirligi bilan birlgilashda joriy yilning nobay oyiда Toshkent shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining uchrashuvu yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlasin.

16. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining "xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatini izchil davom ettirish yo'naliishi bo'yicha:

**2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirler rejasiga** 5-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar** 5a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati** 5b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

17. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.Xodjayev), O'zbekiston Milliy telera-diokompaniyasi (A.Xadzhayev) va O'zbekiston Milliy axborot agentligi (A.Ko'chimov) ommaviy axborot vositalari bilan birlgilashda **muntazam ravishda**:

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish natijalarining ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlar borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamaatchiliklari tushuntirilishini;

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning ijroisi va natijalari to'g'risidagi xolis va to'liq ma'lumot aholiga tezlik bilan yetkazilishini ta'minlasin.

18. Mazkur qaror ijrinosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib **vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari** belgilansin.

Inson tug'ilganidan boshlab qandaydir faoliyatning ishtirotchisi sifatida nimagadir o'zining qiziqishini namoyon eta boshlaydi. O'yinlar bolaning beshidaligidayoq hayotiga kirib boradi. "Bordi-bordi", "tutib olaman", "shaqidog" kabi o'yinlar hali gapirishni ham bilmaydigan bolalarga katta quvonch bag'ishlaydi. Ular ulg'aygan sayin o'yinlari ham shaklan, ham mazmunan murakkablashib boradi. Maktabgacha ta'lum yoshidagi bolalarning tasavvurlari o'yinlar orqali shakllanadi. Yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishiga, individual rivojlanishiga xizmat qiladi.

## O'ynatamiz va o'rgatamiz

Bog'chamizda aholining 3-7 yoshgacha bo'lgan 190 ga yaqin farzandlariga ta'lum-tarbiya beramiz. Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash uchun ham yetarli shart-sharoit yaratilgan. Ayniqsa, turli o'yinlar orqali tarbiyaluvchilarining muomala-munosabatini shakllantirishga, nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantrishga ko'maklashamiz. Ona-tabiatga mehrini uyg'otib, tasavvuri va ijodkorligini rivojlantririb boramiz.

Maktabgacha ta'limga o'yinlarni mazmuni, tashkil etilishi va ta'sir ko'rsatishiga qarab farqlash mumkin. Jumladan, ijodiy o'yinlar bolalarning o'zlari tomonidan o'yub topilib, ularning fikrash qobiliyatini rivojlantridi. Erkinligi, tashkilotchiligi, ijodkorlik qobiliyatini to'la namoyon bo'ldi. O'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmasdan, bolalar ongida qayta ishlarnadi.

Qoidali o'yinlarda esa har bir harakat qoidalalar asosida boshqarib boriladi. Jumladan, didaktik, harakatlari, musiqiy, ermak o'yinlarida qoidalarning bajarilishi "to'g'ri", "noto'g'ri", "o'zin qoidasi buzildi" deya baholab boriladi. Bolalar o'yin vaqtida o'zini nazorat qilishni o'rganadi. To'g'ri yoki noto'g'ri ishlarning



samarasi nima bilan yakunlanishi haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Bog'chalarning pedagog-tarbiyachilar bolajonlarga mehr berish bilan birga ularni hayotga tayyorlab borishi uchun chaggona, uddaburon, topqir bo'lishga undaydigan mavzulardagi o'yinlarni ko'proq tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Guljahan YAHOYEVA,  
Oqdaryo tumanidagi 4-maktabgacha ta'lum tashkiloti tarbiyachisi.

## Dala chetlari ham e'tibordan chetda qolmaydi

Prezidentimizning Buxoro viloyatiga tashrif fi chog'ida oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish orqali narx-navo barqarorligini ta'minlash hamda aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan kafolatli ta'minlash masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida dala chetlардан samarali foydalinish muhimligi ko'rsatib o'tildi.

Qayd etilishicha, joriy yildan boshlab 70 mingdan ziyod fermernarning 60 ming gektar bo'sh dala chetlari uzum, qovoq, qovun, tarvuz va sabzavot ekib, qo'shimcha 220 ming tonna mahsulot yetishtirish, 600 ming bosh parranda va 300 ming dona asalari oиласини boqish bo'yicha katta dastur qabul qilingan. Shuningdek, har bir tumanga 4 na-fargacha, jami 672 nafar mavsumiy agronomi biriktiriladi.

Berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan va qo'shimcha mahsulot yetishtirish uchun viloyatimiz tumanlarida ham ishlarni boshlandi.

Jumladan, Past Darg'om tumanida ham dala chetlардан samarali foydalinish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va qo'shimcha daromad olish choralarini belgilab olindi.

- Prezidentimizning 2023-yil 12-apreldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalarida chetlарidagi yer maydonlari mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash borasida tumanimizda rejalar ishlab chiqildi, - deydi tuman hokimi o'rbinbosari Mahmud Turniyazov. - Tumanidagi 307 ta fermer xo'jaligi, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan joriy yilda 630 gektar dala chetlарida osh-qovoq, tut, tok, mevali daraxt ko'chatlari va poliz ekinlari ekildi. Jumladan, 564 gektarda mevali, uzum, tut, olcha ko'chatlariidan 2114 dona ekilgan.

Bundan tashqari, fermer xo'jaliklari tomonidan dala chetida 65 gektar maydonda sabzavot va poliz ekinlari parvarishlanmoqda.

Dala chetlардан samarali foydalinishni tashkil etish orqali qo'shimcha

65 ta yangi ish o'rni yaratildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, joriy yilning o'zida dala chetlарiga ekilgan ekinlardan 975 tonna mahsulot olinadi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2023-yil 3-avgustdagagi "2023-2026 yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantrishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, tumanidagi fermer xo'jaliklari tomonidan 2023-2024-yillarda 428 gektar o'zlashtiriladigan lalmi va yallow yerlarda, 80 gektar kollektor bo'yalarida, 201 gektar temir va avto yo'l bo'yalarida, 120 gektar eski bog'va tokzorlar o'rniда, 469 gektar dala chetlari hamda 302 gektar aholi tamorgalarida uzum ko'chatlari ekilishi belgilangan.

O'.XUDOYBERDIYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirotini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirotidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

## SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Aktiv nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumi yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumi egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Qurilishi tugallanmagan yordamchi bino	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalinish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Oqdaryo tumanı, "O'zbekiston" MFY, Bolta qishlog'i, 725-uy	0,30	194,7	340 273 000,0	13.10.2023 y.	13.10.2023 y.
2	"Jomboy meva-sabzavot elita urug'chilik xo'jaligi" MCHJning ustav kapitalidagi 100 foiz davlat ulushi	"Jomboy meva-sabzavot elita urug'chilik xo'jaligi" MCHJ	Samarqand viloyati Jomboy tumanı, "Tut" MFY	0	0	5 976 800,0	13.10.2023 y.	13.10.2023 y.

#### Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida:

Usbu obyektlarni "E-IJRO AUKSION" yagona elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlарini boshqarish agentligi qoshidagi "Elektron onlaysaaksonlarni tashkil etish" Ajning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolarda qatnashish istagini bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandani keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalarni bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazi yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

#### Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqam-

li imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkazilgan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va u haqidagi tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkukka tizim o'ziga xos takrorlanmadigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'i to'lagan (to'lov hujatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosiga qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirotchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolagan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirotchining

"Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabarini keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

#### Auksion jarayoni:

Ishtirotchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtida) ishtirotchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirotchini tasdiqlash" so'raladi, ishtirot etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirot etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirotchilaridan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxdan sotib olish bo'yicha taklifi tasdiqlashni so'rashdan boshlandi. Agar, taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirotchilaridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifi tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqa uzyatiriladi. LOT narxi bo'yicha taklifi oxirgi tasdiqlagan ishtirotchisi auksion g'olib bo'lib topiladi. Shunda so'nq ishtirotchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirotchisi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlari boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirot etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirotchilarga zakalat pullari-

ni ishtirotchilarining elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolarda qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlari boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlari tomonidan sotishga tayyorlash va sotish ishlari muvofiqlashtirish bo'limi.

Ma'lumot uchun telefonlar: 66-233-96-64, 99-447-17-70

Faks: 66-233-73-54

"Facebook"dagi rasmiy sahifa: Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz Internet tarmog'idiagi veb-sayt: samarqand@davaktiv.uz

#### BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi "AMINA ALO-QA SERVIS" xususiy korxonasingin (STIR: 304244784) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Oqdaryo tumanidagi "ISHONCH BIZ BILAN" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 31024786) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*

Samarqand shahri xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafraz Ziyorullayevna notarial idorasida marhum Paxridinov Damin Altinbekovichga (2021-yil 14-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafraz Ziyorullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

#### Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Achilbayev Turdimurat Achilbayevichga (2020-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

#### Manzil: Jomboy tumanı Zebuniso ko'chasi, 4-4 "A" uy.

Samarqand shahri xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Jurayeva Gulsun Salmonovnaga (2022-yil 21-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

#### Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

\*\*\*

Fuqaro Karimov Axatga (marhum) qarashli Samarqand tumani Qo'shmachit mahallasida joylashgan uy-joyning kadastr hujjalari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti hamda O'zbekiston tarixi kafedrasiga jamoasi Shokir G'afforovga o'g'li

Jamshid G'AFFOROVning

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.



## MINNATDORMAN!</h



**Dastlab qisqa hikoya.** Qadri insoningiz yordam so'rabb, erkak kishida 50 yoshdan keyin uchraydigan xastalik bilan Toshkentga keldi. Tez-tez hojatga qatnashidan peshob chiqishida ham muammo borga o'xshaydi. "Ha, o'tgan kuni qon aralash ham chiqdi". Bunday paytda nima qilasiz? Tanish-bilish orqali yaxshi shifokor izlashga tushasiz. Bir haftalik yugurishu "analiz topshirish"lar va uch-to'rt mashhur shifoxonalarning tilga tushgan professorlari ishtirokidagi konsiliumlar xulosasi bir-biriga yaqin – tezda operatsiya qilish kerak!

Qadrondininga yotig'i bilan tushuntirgan bo'lasiz. Lekin u: "Qishlog'imizdagi falonchi aka aparasta qildirdi, olti oyga bormadi negadir. Yoki bu do'xtirlar eng boshqachami?", deydi. Mutaxassislar esa kafolat bera olishmaydi: "Bez katta, operatsiyadan yaxshi chiqsa, 3-4 yil, bo'limasa, qishloq doshingizdag'i kabi olti oy...".

Qisqasi, otaxonni poytaxtdan yana Samarcandga, aniqrog'i, Kattaqo'rg'ondag'i "Ergash ota" xususiy tibbiyot markaziga borishga undaymiz. Norizo bo'ladi. "Agar davo topmasangiz, jarrohlik amaliyoti qochmaydi". Ishonqiramasa-da, "mayli", deydi. Otaxon "Ergash ota"da bir oy davolanadi. Shu-shu Toshkenti eslamaydigan bo'ldi. Bu voqeaga 20 yildan oshdi. Hozir shu inson 82 ga qadam qo'ydi. Yuzlardan oshsin, ilohim!

#### SIZNING KASALINGIZ YOZILMAGAN BO'LISHI MUMKIN...

Shifoxona qabulxonasidagi e'lon taxtasiga e'tibor qaratangiz, jigar va o't kasalliklaridan: surunkali gepatit, surunkali xoletsistit, xolangit, toshli xoletsistit, toshsiz xoletsistit, o't qop operatsiya yo'li bilan olib tashlangach, kelib chiqadigan xastalik (ya'n, «post-xoletsisto gektomicheskiy sindrom»), o't yo'li torayishi, chandiq qoplashi, o't xaltasi qiyshayishi va surunkali pankreatit; qandili diabet xastaligi (insulin qabul qilmagan bo'lsa), oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak kasalliklaridan: oshqozon va o'n surunkali piyelonefrit, ikkala buyrak tuz, tosh, qum xastaligi, buyraklar kistasi, siyidik yo'li va qovuglarda tosh, qum, tu to'da bo'lishi; bo'g'in kasalliklaridan: revmatoid, poliartrit (gormonal dorilar qabul qilmagan bo'lsa), semizlik bilan bog'liq xastaliklarning oldini olish va davolash; profilaktik yo'li bilan o'smalarning oldini olish va davolash; ginekologik xastaliklardan: sur endometrit, adneksit, bachebondagi miomalar, tuxumdonlar kistasi; teri kasalliklar; bo'yni, ko'krak, bel qismi osteoondrozi, disk churrasi, gija xastaliklarining davolanishi haqidagi ma'lumotlarni o'qisiz.

Bularni ko'rib, "misolingizdag'i kasallikni davolash ko'rsatilmagan-ku", demang. Asilda sabrli bo'lsangiz, bu yerda ko'plab xastaliklardan shifo topishingiz mumkin.

#### NOBEL MUKOFOTINI OLGAN

#### YAPON OLIMI KASHFIYOTI

Kunchiqar mamlakat mutaxassisining ism-sharifi – Yosinori Osumi, Tokio texnologik universitetining hujayra biologiyasi professori. Unga tibbiyot va fiziologiya sohasidagi 2016-yilgi Nobel mukofoti autofagiya mechanizmlarini kashf qilgani uchun berildi. Autofagiya - bu hujayra darajasida tabiyiyan qilingan, yasharish jarayoni bo'lib, bunda insonga xos ba'zi kasalliklarning paydo bo'lishi kamayadi va inson umri uzayadi, deb izoh berilgan manbalarda.

Endi «Ergash ota» xususiy tibbiyot markazi bosh shifokori, I darajali «Salomatlik» ordeni sovrindori, Turon fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, akademik Berdiqul Ergashev fikriga e'tibor qaratamiz:

– Bizning muolajamiz parhez, tabiyi giyohlar asosida tayyorlangan malhamaga asoslangan. Ular yordamida butun tanadagi kasalliklarning asl sabablariga ta'sir qiluvchi, odam tanasini tashkil etgan har bir hujayra va to'qimalarni kasallik sabablaridan tozalovchi va alalogibat, darddan foriq qiluvchi davolash usulidir. Bu usul xastaliklarni davolabiga qolmay, kasallikning, shu bilan birga, barvaqt keksayishning oldini oladi, kimyoiy dori-darmonlarsiz, jarrohlik muolajalarisiz insonning asosiy boyligi bo'lmish sog'ligini saqlashda katta foyda beradi.

Ko'rinadiki, yaponiyalik olimming bu kashfiyoti 30 yil avval O'zbekistonda, o'zbek shifokori tomonidan kashf qilingan aslida. Amerikani ham qomusiy olimimiz Beruniy bir necha asr avval kashf etgan, lekin Kolumb nomiga yozilish goldi... Nachora?

#### AVAZ OXUNNING FIKRI TO'G'RIMI?

O'zbekning bugungi qiziqchilarini orasida Avaz Oxunning o'z o'rni bor. Uslubi rahmatli Hojiboy Tojiboyevni eslatadi. Ijodiga baraka tilayim, albatta.

Biz hikoya qilayotgan shifoxonaning nomini tilga olmagan bo'lsa-da, unga tegishirib bir hangoma aytdi. Xandasiga gap yo'q, lekini bor. Avvalo, har bir hajvning o'ziga xos xulosasi bo'ladi. "Bir burda non bersang, aytaman", deya hangomasini tugatarkan, zaldagi odamlar

kulaytoga: "ochlik bilan davolaniib bo'larkanmi?" xulosa-savolini aytib, boshqa mavzuga o'tib ketdi. Bu sihatgohda davolanganlar xaton anglab oldi, biroq oddiy insonlar unga ergashishlari tabii. Ochlik degan gapni eshitishi bilan ko'pchilikning avzoyi buzilib, kayfi qochadi...

Holbuki, bu dargohda, birinchidan, hech kim och qolmaydi. Avalo, shifokorning shaxsan qo'llidan har kuni olib ichiladigan bir kosa malham o'n kosa sho'rvanan quvvatiq teng. Ikkinchidan, istagan paytingizda uch litrgacha tabiiy olma sharbatni iste'mol qilishningiz mumkin. Sharbat tarkibida inson organizmiga uchun eng kerakli ozuqalar mavjud. Sutkasida uch marta beriladigan fitchocholar esa bermalol suv o'rnni bosadi. Uchinchidan, shanba malhamidan keyin asr payti va yakshanba kuni qaynatma parhez suyuq taomlar beriladi. To'rtinchidan, tibbiyot muassasiga Yevropa, xususan, tibbiyoti rivojlancha AQSh, Olimoniya, Avstriya, shuningdek, Polsha, Saudiya Arabiston, Rossiya kabi davlatlar fuqarolari bejiz talpinmayotgandir. Qo'shni Qozog'istonni aytib ham o'tirmaymiz. Fikrimiz isboti uchun quyida eng yangi misol.

– Men Andjei Xaritonuyk, Polshaning Krinitsa Morska Gdansk shahrida 1960-yil tug'ilganiman. Quruvchiman. Shifokor Berdiqul Ergashevning "Eng shirin lazzat – salomatlik", degan fikrini nogiron bo'lib qolgachqina anglab yetdim. Polshada 65 yosh naqaqa yoshi hisoblanadi. Lekin men kasalliklarim sabab 60 yosha chiqishiga majbur bo'ldim. Avval umurtqamdag'i bir bo'g'inni almashtirishdi. Bu fursatda buyragimda murakkab jarrohlik amaliyotini o'tkazdim. Toshni olib tashlashdi-yu, lekin ko'p o'tmasdan yana paydo bo'idi. Yana jarrohlik amaliyotiga ko'nglim tortmadni. Shunday kunlarning birida buxorolik birodarlarning "Ergash ota"ni eshitib, O'zbekistonga keldim.

Dastlab uch haftalik kurs belgilandi. O'ninchki kuni o't qopidagi xolesterin toshlari tusha boshlidi. Yengillik sezdim. O'zimdag'i o'zgarishlarni ko'rib, shifokor tawsiyasiga quloq tutib, barcha rasmiyatçiliklarni bajarib, O'zbekistonda qolish muddatini uzaytirdim. Davolanshimming oltmishinchi kuni ichimdan o'zin bilmagan, lekin hayotimga xavf solgan rak to'qimalarini tushdi. Men ularning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rib, suratga olib qo'ydim. Mana, 82 kunlik 120 ta malham va muolajalaridan keyin (15.05. – 04.08.2023), ko'rib turganiningizdek, o'zimni juda yaxshi his qilayman. Bu fursatda oshiqcha 27 kilo zararli yog' va xiltardan xolos bo'ldim. Darvoqe, O'zbekistonga hassaga suyanib kelgandim, uni tashlab ketayapman. Yana bir kasalim – surunkali bronxit butunlay yo'qoldi.

Bu yerga o'n kunlik muolajaga kelib, uyiga shoshayotganlarga maslahatim: davolanshingga kamida bir oy vaqt ajarating. Natijasi, albatta, yaxshi bo'lishiga kafliman.

O'zim esa olti oydan keyin yana kelti, davolanshining davom ettirimgachman. Negaki, muolajalar juda katta foyda keltirganini tanamda his qildim. Men shifokordan, tibbiyot muassasa xodimlaridan minnatdorman. Sog'lik – bebabu, uni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi!

Pan Xaritonuykning so'zlariga izohning hojati bo'limasa kerak.

#### TIBBIY TURIZM RIVOJIGA HISSA

Dunyoning turli go'shalaridan davolanshaga kelayotgan fuqarolar soni yildan-yilga oshib bormoqda. 2021-yil davolansh uchun xorijdan 2026 nafr mijoz kelgan bo'lsa, o'tgan yili 5548 nafr shifotoladagi tashrif buyurdi. Joriy yil rekord darajaga erishish kutilmoqda. O'tgan sakiz oyda 4.339 nafr xorijlik davolash. Yil oxirigacha yana 2000 mijoz kutilmoqda.

B.Ergashev bu xizmati bilan O'zbekiston havo yo'llari, temir yo'llari, avtoparklar va boshqa muassasalarining ham daradom olishiga sabab bo'lmoxda. Mijozlar markazda nafaqat shifo topishmoqda, balki dardlari yengillashgach,

yakshanba kunlari Samarcand, Navoiy, Buxoro viloyatlariagi qadamjolarga sayohatga chiqishmoqda. Ular uchun taksi va avtobuslar xizmat qilmoqda. Qisqasi, bu ziyyaratlar Berdiqul Ergashevning turizm rivojiga qo'shayotgan salmoqlig hissasidir.

Tadbirkor shifokor yangi imkoniyatlardan ruhlanib, ko'p qavatlari va ko'p yulduzi zamonaviy mehmonxona qurishni davom ettirmoqda.

Mazkur mehnomonaning bitishi nafaqat O'zbekiston tibbiy turizmini rivojlantiradi, balki o'z qorako'zlarimiz oиласини tebratishi uchun manba bo'ladigan ish o'rni yaratiladi, degani hamdir.

#### ENG ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA MARKAZI

Bosh shifokor Berdiqul Ergashev har bir mijozga Ibn Sino qo'llagan usulda tashxis qo'yadi. Lekin uning tashxislarini istagan bemor qayta tekshirib ko'rish imkoniyati ga'ga. Buning uchun eng so'nggi rusumdag'i zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan diagnostika markazida barcha sharoit muhayyo. Yaqinda maskanga so'nggi rusumdag'i yana bir apparat olib kelindi.

– "Toshiba" firmasining "Vantage Titan 3T" MRT uskunasi nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoda hozircha yagona ekanligini mutaxassislar ta'kidlashmoqda. Uning mavjudlaridan farqi shundaki, diagrammasi katta, ish tezligi va aniqligi bo'vicha sifati yuqori. Avvalgisi bitta joy belgilanib olinib, suratga tushiril (skannerlan)gan bo'lsa, bunda hamma joyini bиро'la olish mumkin. Qulochqinlar shovqin o'tkazmaydi, yoqimli musiqa eshitilib turadi. Avvalgilar 110 kilogramgacha bo'lgan mijozlarni ko'targan bo'lsa, yangisi 200 kilogramgacha ko'tara oladi. Avval bemor bir xil – osmonga qarab yotqizilgan bo'lsa, bunda yonboslatib yoki boshqacha tarzda joylashtirish mumkin. Avval ichkariga faqat bosh tomonidan joylashtirilgan bo'lsa, bunda oyoqlar tomonidan ham joylashtirishning imkonibor.

– Yaponiyadagi mutaxassislar kelishsa, qolgan qulayliklarini ham o'zlashtirib olamiz, albatta, – deydi biz bilan suhbata uskuna operatori Sherzod Quvondiqov.

Markazga keltirilgan Yaponiyaning «Toshiba» firmasi tomonidan ishlab chiqilgan «Apilo 500» UTT rangli apparati yordamida esa qo'shimcha diagnostika tariqasida ijtibor, buyrak, yurak, oshqozon osti bezi va boshqa barcha ichki a'zolardagi jarayonlar aniqlanib, kasalliklarga tashxis qo'yildi. Boshqa zamonaviy jizoh va apparatlar ham juda kuchi.

B.Ergashevning tibbiyotdagi yangiliklarni kuzatib, malakasini oshirib borishi natijasida markazda nafaqat zamonaviy tashxislash, balki davolash texnikalari ham mos ravishda qo'llaniladi. Masalan, Yevropada ishlab chiqarilib, qo'llanilayotgan to'qinli zarbali terapiya (TZT), umurta pog'onaсидagi muammolarni bartaraf etishda, og'riqlarni yo'qotish, tuzlarni eritish, yog'larni ketkazishda samarali bo'lgan ko'plab jihozlar mavjudki, katta klinikalarda ham ularning bunday jamlamasini kam ko'rish mumkin...

Toshkentda yashayman. Biror yaqinim betob bo'lib qolsa, yuqorida qasalliklar ro'yxiyatida bo'limasa-da, "Ergash ota" va uning betakror hakimi Berdiqul Ergashev huzuriga shoshaman. Negaki, Nobel mukofotini o'g'li, yurak, oshqozon osti bezi va boshqa barcha yoshlari yordam qilishdi. Ulug' olimning haykalini qo'shishda, mahalla raisi Baxtiyor Umarova yug'ani yordam qilishdi. Ulug' olimning haykalini qo'shishda, atrofi obodonlashtirildi.

Mahalladoshlar bilan hamjihatlikda amalga oshirgan bu ishimiz bilan ta'mirlash uchun kerakli jihozlarni tayyorlashga kirishdir. Bunda bizga mahalladoshlar ikromaka, Islomaka va o'g'li, futbol murabbiysi Bahodir hamda mahalla yoshlari yordam qilishdi. Ulug' olimning haykalini qo'shishda, atrofi obodonlashtirildi.

Padaribuzrukvorimizning burunlaridan yara chiqdi. Onkologlar uni kesib, tekshirib, oddiy yara emasligi, kamida nur olmasa, ahvol og'irlashishni aytib, ukamga yaraning yemirilishi (agar shunday deyish to'g'ri bo'lsa) xususidagi qo'rejinchli suratlarni ko'ratishtibid. Bu jarayon boshlangan edi. Ularga, ya'ni rasmiy tibbiyotga e'tirozimiz yo'q, albatta. Lekin kamina Berdiqul Ergashev falsafasini tan o'lgan inson sifatida unga "yopishdim". Bir oylik malhamli muolaja, mo'jiza surma va boshqa shifo usullari bilan yara joyi bita boshladи. Uy vazifa tariqasida berilgan yarim yillik muolaja natijasida butunlay tuzaldi.

Ko'ryapsizki, anglaganlar uchun Ibn Sino izdoshi Berdiqul Ergashev u va yaratgan "Ergash ota" tibbiy markazi "umid orolchasi" sifatida dillarga muhrlangan. Umid bilan kelgan sabrli bemorning tuzalishiga polyak akamiz aytmoqchi kafolat bor. Qozog'istonlik ishbilarmon Vladimir Grinberg gapi esa bu fikrni asoslaysidi: "Men tibbiyot rivojlangan Olmoniya, Koreya, Isroi, Shvetsariya kabi juda ko'p davlatlarda bo'lib, ularning tibbiy xizmatidan foydalanman. Shu bois rivojlangan davlatlar tibbiyotidan xabardor inson sifatida Berdiqul Ergashevning davolash usulini dunyoda tengi yo'q deb hisoblayman".

Halim SAYID,  
"Oltin qalam" milliy mukofotini sovrindori.

## Beruniy yodgorligi ta'mirlandi

2022-yil 25-avgustda davlatimiz rahbarining "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro mifoyosda keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan, buyuk o'zbek olimi Abu Rayhon Beruniy nomi bilan bog'liq obida va qadamjolar, shu jumladan, alloma sharafiga o'rnatalgan yodgorlik majmualari mukammal ta'miranishi va ularning hududi obodonlashtirilishi belgilandi.



Samarqand shahridagi So'lim shaharchasi Navro'z mahallasi markazida ulug' allomaga haykal o'rnatalgan. Ushbu haykal bugungi kunga kelib, ta'mirlab bo'lib qolgan edi. Har gal uning yonidan o'tganimda ta'mirlash to'g'risida o'ylar edim. Buni mahalla raisi Baxtiyor Umarova aytganida, u kishi fikrimi ma'qullab, o'zi ham ancha vaqtan buyon shuni rejalashtirib yurqanini aytdi. Bamaslahat ta'mirlashga kirishdir. Avval Samarqand shahar hokimi o'rnbosari Orif Hayitovga murojaat qildik. U kishi bizga haykaltarosh Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti Turkman Esanovni tavsusiya qildi.

Shundan so'ng usta-haykaltarosh boshchiligidagi mahalla raisi bilan ta'mirlash uchun kerakli jihozlarni tayyorlashga kirishdir. Bunda bizga mahalladoshlar ikromaka, Islomaka va o'g'li, futbol murabbiysi Bahodir hamda mahalla yoshlari yordam qilishdi. Ulug' olimning haykalini qo'shishda, atrofi obodonlashtirildi.

Mahalladoshlar bilan hamjihatlikda amalga oshirgan bu ishimiz bilan ta'mirlash uchun kerakli jihozlarni tayyorlashga kirishdir. Bunda bizga mahalladoshlar ikromaka, Islomaka va o'g'li, futbol murabbiysi Bahodir hamda mahalla yoshlari yordam qilishdi. Ulug' olimning haykalini qo'shishda, atrofi obodonlashtirildi.

Mahalladoshlar bilan hamjihatlikda amalga oshirgan bu ishimiz bilan ta'mirlash uchun kerakli jihozlarni tayyorlashga kirishdir. Bunda bizga mahalladoshlar ikromaka, Islomaka